

**Ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi
TN-39 sonli SHARTNOMA**

Toshkent sh.

24 yanvar 2022 y.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUKning Toshkent shahar filiali (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan 07 yanvar 2022 y. 5/04-04-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor B.A.Shobo'tayev bir tomondan va **TOSHKENT Sh. AT XALK BANKI SIRGALI FILIALI** (keyingi o'rinlar «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi H.A. Berdiyev o'g', ikkinchi tomondan, birgalikda «Tomonlar», quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha: **Toshkent shahar Sergeli tumani sergeli 4 mavze 34A uy manzilida joylashgan AT "Xalq banki" Sergeli filiali ma'muriy binosini rekonstruksiya qilish** ob'ektining loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi, Buyurtmachi, o'z navbatida, ekspertizadan o'tkazish ishlari uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ekspertizani o'tkazish muddati mazkur shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq Buyurtmachi tomondan oldindan pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng 30 ish kuni, agar Buyurtmachiga hujjatlarni taqdim etish bo'yicha (kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida) xat yuborilgan bo'lsa, ishlarni bajarish muddati Bajaruvchining xatida belgilangan davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

1.3. Ekspertizadan o'tkazishga Buyurtmachining 22.01.2021-yildagi №30821-sonli xati asos hisoblanadi.

1.4. Ekspertizadan o'tkazish ishlarining yakuniy natijasi ekspert xulosasi hisoblanadi.

1.5. Bajaruvchi mustaqil ravishda hamda uchinchi shaxslarni jalb etish bilan Buyurtmachi manfaatlarini ko'zlab ishlarni bajaradi.

II. SHARTNOMA BAHOSI VA O'ZARO HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Kelishuv bayonnomasiga muvofiq (1-ilova) shartnoma bahosi va ekspertizadan o'tkazish ishlarining umumiy qiymati: **1 575 239 (Bir million besh yuz yetmish besh ming ikki yuz o'ttiz to'qqiz so'm 00 tiyin.) so'm, shu jumladan QQS 15% 205 466 (Ikki yuz besh ming to'rt yuz oltmish olti so'm 00 tiyin.) so'm.**

2.2. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolanganidan so'ng 3 (uch) kun ichida shartnoma umumiy qiymatining 100 % miqdorini oldindan to'laydi, ishlar bajarilgandan so'ng topshirish-qabul qilish dalolatnomasi va hisob-faktura imzolaydi.

2.3. Ekspertizadan o'tkazish ishlari bajarilib, o'zaro to'liq hisob-kitob qilingandan so'ng, Bajaruvchi aybdor bo'lmagan taqdirda mazkur shartnoma predmeti bo'yicha takroran ekspertizaga taqdim etilsa, takroriy ekspertizadan o'tkazish uchun haq to'lash yangi shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

2.4. Shartnoma majburiyatlari bekor qilinganda, shartnomaviy hujjatlar (bajaruvchining nusxalari) hamda qayta ishlashga va takomillashtirishga qaytarilgan loyiha materiallari taqdim etilmaganda, bajarilgan ish hajmidan qat'iy nazar to'langan mablag'lar qaytarilmaydi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bajaruvchi taqdim etilgan loyiha hujjatlarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ekspertizadan o'tkazish majburiyatini oladi;

3.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma yuzasidan quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) Bajaruvchiga ekspertizadan o'tkazish uchun zaruriy tegishli hujjatlarni o'z vaqtida to'liq taqdim etish;

b) ekspertizadan o'tkazish xizmati haqini o'z muddatida shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq to'lovni amalga oshirish;

v) ekspertiza xulosasini olish bilan birgalikda ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib olish. Hujjatlar olib ketilmagan taqdirda Bajaruvchi ularning saqlanishi uchun javob bermaydi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

4.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga bajarilgan ishlar uchun to'lovning kechiktirilgan har bir kuni uchun shartnoma bahosining 0,4% miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. Bajaruvchi Buyurtmachiga ekspertizadan o'tkazish ishlarini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda kechiktirilgan har bir kun uchun shartnoma bahosining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.3. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

4.4. Mazkur shartnomaning bajarilishi yuzasidan tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchilik muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.